
“Besarang” MFYda joylashgan 32-umumta’lim maktabida “Tashabbusli byudjet” loyihasi asosida 140 o‘rinli yangi o‘quv binosi yoshlar ihtiyoriga topshirildi.

“Tashabbusli byudjet” loyihasining ovoz berish jarayonlarida besarangliklar ham faol ishtirok etib, maktabda qo‘shimcha bino qurish uchun g‘olib bo‘ldilar. Hamjihatlikda qilingan harakatlar natijasida loyihaning ikkinchi mavsumida 5676 ta ovoz to‘pladi. Natijada maktabda 1 milliard 200 million so‘mlik bunyodkorlik ishlari bajarildi. Quruvchilar tomonidan tez va sifatli barpo etilgan yangi o‘quv binosida o‘quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratib berildi.

Bugun tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman prokurori Shuxratjon Musayevlar hamda mahalla faollari yangi binoni foydalanishga topshirdilar. Tadbir ishtirokchilari zamonaviy va ko‘rkam ziyo maskaniga aylangan binoda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

2023-12-13 16:57:18